ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 19.04.2026 · Accepted: 19.05.2026 · Published: 30.06.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/z2zz6p41

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Tanbur, dutor va sato hamnafasligida mumtoz hayot sarhadlari. Turg‘un Alimatov misolida

(The Horizons of Classical Musical Tradition in the Unity of Tanbur, Dutor, and Sato: A Study of Turg‘un Alimatov)

Shuxrat Xolxojayev

Department of Vocal and Instrumental Performance,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: shuxratxolxojayev4@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq artisti, professor, “Oltin noxun” sohibi Turg‘un Alimatovning ijodiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan ayrim jihatlar yoritiladi. Xususan, uning tanbur, sato va dutor cholg‘ularidagi ijro uslubi, o‘zbek mumtoz cholg‘u ijrochiligi an’analarini yuqori badiiy bosqichga olib chiqqani hamda mazkur cholg‘ularning ifodaviy imkoniyatlarini keng namoyon etgani tahlil qilinadi. Maqolada Alimatovning yumshoq va mayin sadoli cholg‘ular orqali yuksak badiiy asarlar yaratgani, ularning ansambl tarkibidagi uyg‘unligini ochib bergani va tinglovchilar e’tirofiga sazovor bo‘lgan ijro maktabi shakllantirgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, xonandalar bilan ishlash jarayonida uning jo‘rnavozlik mahorati, cholg‘u ijrosi orqali vokal asarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytirish usullari ham yoritiladi. Umuman olganda, maqolada Turg‘un Alimatovning ijroviy merosi yosh avlod sozandalari uchun muhim ijodiy tajriba sifatida baholanadi hamda tanbur, sato va dutor uyg‘unligi o‘zbek mumtoz musiqasi doirasida keng ijodiy imkoniyatlarga ega ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tanbur, dutor, sato, Turg‘un Alimatov, ijro uslubi, o‘zbek mumtoz musiqasi, jo‘rnavozlik, ansambl, an’anaviy cholg‘u.

Abstract

This article examines several aspects of the artistic activity of Turgun Alimatov, People’s Artist of Uzbekistan, professor, and holder of the “Oltin noxun” award. Particular attention is given to his performance style on the tanbur, sato, and dutor, through which he brought the classical Uzbek instrumental tradition to a high artistic level. The article discusses Alimatov’s role in revealing the expressive possibilities of these soft-sounding instruments, his contribution to the formation of an original ensemble sound, and the recognition his art received from listeners. It also considers the specific features of his accompaniment practice in collaboration with singers. The study emphasizes the importance of Alimatov’s performing heritage for the younger generation of musicians and shows that the unity of tanbur,

sato, and dutor opens wide creative possibilities within the context of Uzbek classical music. The article also highlights the role of aesthetic taste, artistic thinking, and individual interpretation in the work of a traditional performer.

Keywords: tanbur, dutar, sato, Turgun Alimatov, performance style, Uzbek classical music, accompaniment, ensemble, traditional instrument.

Аннотация

В данной статье рассматриваются отдельные аспекты творческой деятельности народного артиста Узбекистана, профессора, обладателя награды «Oltin noxun» Тургуна Алиматова. Особое внимание уделяется его исполнительскому стилю на танбуре, сато и дутаре, посредством которого он поднял традицию узбекского классического инструментального исполнительства на высокий художественный уровень. В статье раскрывается роль Алиматова в выявлении выразительных возможностей этих мягкозвучных инструментов, формировании своеобразного ансамблевого звучания и достижении признания среди слушателей. Кроме того, рассматриваются особенности его “jo‘rnavozlik” –искусства инструментального сопровождения певцов. Подчеркивается значение исполнительского наследия мастера для молодого поколения музыкантов, а также показывается, что единство танбура, сато и дутара открывает широкие творческие возможности в контексте узбекской классической музыки. В статье также отмечается важность эстетического вкуса, художественного мышления и индивидуальной интерпретации в деятельности традиционного исполнителя.

Ключевые слова: танбур, дутар, сато, Тургун Алиматов, исполнительский стиль, узбекская классическая музыка, аккомпанемент, ансамбль, традиционный музыкальный инструмент.

San’at inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ifoda etuvchi kuchli vositadir. Bu holat inson qalbi, tafakkuri va dunyoqarashining nozik ifodasi bo‘lib, unda ijodkorning ichki dunyosi yaqqol aks etadi. Ayniqsa, sozandalik san’ati nafaqat texnik mahorat va iqtidor, balki ichki kechinmalar, tafakkur va dunyoqarash uyg‘unligidir [1]. Har qanday sozanda o‘z ijrosi orqali nafaqat kuy chaladi, balki hayotga bo‘lgan munosabatini, fikrlash tarzini va ruhiy olamini ham namoyon etadi.

Keng fikrlovchi, turli madaniyat va qadriyatlarni anglay oladigan sozanda o‘z ijrosiga yangicha ruh bag‘ishlaydi. U nafaqat musiqiy ijrochilik bilan

shug‘ullanuvchi shaxs, balki madaniy-estetik did va ruhiy olamni ifoda etuvchi ijodkor sifatida ham namoyon bo‘ladi [5]. Bunday ijrochi oddiy kuylarni ham chuqur mazmun bilan boyitib, tinglovchiga kuchli ta’sir o‘tkaza oladi. Masalan, maqomlar va xalq kuylarini ijro etishda ularning tarixiy ildizlari, ma’nosi va ruhiy olamini tushungan sozanda ularni oddiy takrorlamaydi, balki his etib, o‘ziga xos tarzda jonlantiradi. Natijada iztirob, quvonch, sog‘inch, umid yoki g‘alaba kabi turli kechinmalar asarda yanada chuqurroq ifodalanadi. Bu esa ijroning ta’sirchan va mazmunli chiqishini ta’minlaydi.

Shu bois O‘zbekiston xalq artisti, professor Turg‘un Alimatovning sato, dutor va tanbur sozlarida o‘zbek mumtoz ijrochilik an’analarini rivojlantirishdagi o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Avvalo, ustozning ijro yo‘nalishini tanlashdagi muvaffaqiyati uning o‘ta sezgirligi, tinglovchini chuqur anglay olishi va badiiy tafakkuri bilan bog‘liq. Bu ijro yo‘nalishi uzoq yillik tajriba, izlanish va ustozlar ijro uslublarini sinchiklab o‘rganish natijasida shakllangan. U o‘tgan ustozlar ijro an’analarini o‘z tafakkuri bilan uyg‘unlashtirib, asarlarda soddalik, zehn va ommaboplik hissini saqlagan holda qo‘llay oldi.

Turg‘un Alimatov o‘z davri musiqa ixlosmandlari va shinavandalari talabini chuqur his etib, tinglovchilar qalbiga yaqin bo‘lgan asarlar ketma-ketligini taqdim etdi. Uning ijro yo‘nalishida musiqiy soddalik, ichki kechinma va ruhiy mazmun ustuvor ahamiyat kasb etadi. “Segoh”, “Chorgoh”, “Navo”, “Samarqand ushshog‘i”, “Tanovar”, “Rohat”, “Sato nolasi”, “Dutor navosi”, “Dutor tanovari” va “Sato navosi” singari kuylar ushbu ijodiy tamoyilning yorqin namunalaridir.

Musiqa his-tuyg‘ular tili bo‘lib, zamonaviy dunyoda sozanda faqat ijrochi emas, balki tafakkurli shaxs bo‘lishi zarur. Global madaniyatlar o‘zaro uyg‘unlashib borayotgan bir paytda sozandaning keng dunyoqarashi unga turli janr va uslublarni o‘rganish, yangiliklarga ochiq bo‘lish imkonini beradi [2]. Agar sozanda hayotni chuqur his eta olsa, uning ijrosi kuy orqali sog‘inch, armon, quvonch va ilhom kabi

murakkab tuyg‘ularni yanada aniq va ta’sirchan ifodalay oladi. Bu esa uning professional rivojlanishiga xizmat qiladi.

Turg‘un Alimatov uchun musiqani shunchaki ijro etish emas, balki unga jon bag‘ishlash muhim mezon bo‘lgan. Takrorlanmas asarlarni yaratishda faqat hissiyot uyg‘unligi emas, balki ijrochining tafakkuri, dunyoqarashi, boshqa xalq musiqalarini tushuna olish va ijro etish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Turg‘un Alimatov yetakchi ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning boshqa millat musiqalariga e’tiborli bo‘lgani va ularni ijro etish qobiliyatiga ega ekani yaratgan asarlariga yangi badiiy qiyofa baxsh etgan.

Masalan, “Segoh” asarining ohanglanishi o‘ziga xos bo‘lsa-da, ustoz ijrosida u yangi badiiy qiyofada namoyon bo‘ladi. Bunga asardagi ayrim melizm va nolalarga hind musiqasiga xos bezaklar hamda forshlag ohanglarining nozik qo‘shilishi sabab bo‘lgan. Shu bilan birga, ijroda o‘zbek milliy pardalari va milliy melizmlar saqlanib qolgan. Turg‘un Alimatov turli xalqlar musiqasini tushungan, sevib ijro qilgan va shu orqali o‘z asarlariga betakror badiiy tus bera olgan.

Ustoz ijrosining yana bir muhim jihati asardagi melizm, forshlag, qochirim, nola va kashish kabi ijro harakatlarini sinchkovlik bilan tanlash va ularni tartibli taqsimlashida ko‘rinadi. Uning kuylarida ortiqcha harakatlar deyarli uchramaydi [4]. Bu hozirgi zamon tinglovchisi talablariga ham mos keladigan muhim jihatdir. Mavjud asarlarni qayta ishlash orqali u tinglovchida ularni yangi asardek qabul qilish taassurotini uyg‘ota olgan. Uning bastalagan kuylarida esa sayqal, badiiy tafakkur va ijrochilik mahorati uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bunday ijro uchun kuchli zehn, boy tafakkur, keng dunyoqarash, ijodiy erkinlik, turli xalqlar musiqasini sevib tinglash va ijro etish qobiliyati zarur. Shuningdek, ijrochi yaratgan asarlariga ichki kechinma va hissiyotlarini singdira olishi kerak. Turg‘un Alimatov ushbu mezonlarga mos ijodkor sifatida milliy musiqamiz ijrochiligida tarixan takrorlanmas o‘rin egalladi.

Tinglovchilar tomonidan Turg‘un Alimatovga uning ijrosi nega tinglovchiga kuchli ruhiy ta’sir ko‘rsatishi haqida savol berilganida, ustoz ijro jarayonida san’atkorning xayoli turli maishiy mavzularga chalg‘imasligi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ijrochining butun diqqati asar mazmuniga qaratilsa, ijodiy mahsulot ham yoqimli va ta’sirchan chiqadi [3]. Turg‘un Alimatov ijrosi sokinlik, teranlik va chuqur ma’noli ohanglarga boyligi bilan boshqa sozandalardan farq qiladi. Mutaxassislar fikricha, bu ijro uslubini “falsafiy-ruhiy ijro maktabi” sifatida baholash mumkin.

Taqqoslash uchun:

Oddiy ijrochi – texnika, melizm va tovushlar ketma-ketligiga asoslanadi.

T. Alimatov – ma’no, falsafa, tafakkur, yangicha ranglar, tarixiy ildiz va ruhiy holatni ifoda etadi.

Turg‘un Alimatov murakkab tarixiy davrda, jumladan Ikkinchi jahon urushi yillari va undan keyingi ijtimoiy-madaniy sharoitda yashab ijod qilgan. U turli qiyinchiliklarga qaramay, ustozlardan saboq olgan, shogirdlar yetishtirgan va musiqaga hayot falsafasi sifatida qaragan. Shu sababli uning ijrosi oddiy texnik namoyish emas, balki ichki kechinmalar ifodasiga aylangan. Boshqa sozandalar ko‘pincha o‘rganilgan kuylarni ijro etgan bo‘lsa, Turg‘un Alimatov ularni qayta badiiy talqin qilgan.

Turg‘un Alimatov nafaqat ijrochi, balki sayqallovchi bastakor ham bo‘lgan. Uning ijodi chuqur hissiy va falsafiy mazmunga ega. Sho‘xchan yoki o‘ychan kuy bo‘lishidan qat’i nazar, u asarlarga qayta jon bag‘ishlab, ularga o‘ziga xos ohang qiyofasini bergan. Bu jarayon ijodning faqat texnika va sayqal emas, balki tafakkur mahsuli ekanini ko‘rsatadi.

Uning ijro yo‘nalishidagi yana bir muhim bosqich xonandalarga jo‘r bo‘lish san’atida namoyon bo‘ladi. Odatda jo‘rnavoz xonandaga jo‘r bo‘lish uchun avvalo asarni o‘rganadi, yod oladi va xonandaga xalaqit bermasdan sinxron tarzda ijro etadi. Turg‘un Alimatov esa bu jarayonga yangi badiiy yondashuv olib kirgan. U ashula

ijrosi davomida cholg‘u jo‘rligini mustaqil badiiy qatlam sifatida namoyon eta olgan.

Turg‘un Alimatov tanbur, sato yoki dutorda xonandalarga jo‘r bo‘lgan ijrolarda cholg‘u ohanglanishi alohida badiiy qiymat kasb etadi. U mavjud asarni to‘liq yod olgan, unga o‘z ijro imzosini singdirgan va xonanda bilan uyg‘unlikda ijro etgan. Shu bilan birga, cholg‘u jo‘rligi ashula ichida alohida musiqiy obraz sifatida eshitilgan. Natijada tinglovchi bir vaqtning o‘zida ashula va cholg‘u kuyining uyg‘un badiiy talqinini qabul qiladi.

1. Mavjud asarni yod olish borasida Turg‘un Alimatovda o‘ziga xos ijrochilik xususiyati shakllangan. U bir asarga har safar jo‘r bo‘lganida avvalgi ijrosiga aynan o‘xshamagan yangi talqinlarni namoyon etgan. Bunga sabab shundaki, u asarni yod olish jarayonidayoq unga bir necha badiiy qiyofa baxsh etgan. Natijada bir asar turli ijro variantlarida yangicha talqin qilingan.

2. Asarga o‘z ijro imzosini kiritish jarayoni ham uning ijrochilik maktabida muhim o‘rin tutadi. Xonandaga jo‘r bo‘lishda unga xalaqit bermaslik bir jihat bo‘lsa, ikkinchi jihat – ustozning o‘z ijro maktabini namoyon etishidir. Qaysi xonandaga jo‘r bo‘lmasin, asar ohanglanishida Turg‘un Alimatovning ijro uslubi aniq seziladi. Tanbur, sato yoki dutor cholg‘usida jo‘r bo‘lish jarayonida u cholg‘u ovozini xonanda ovoziga raqobat qildirmasdan, balki uni badiiy jihatdan boyituvchi qatlam sifatida qo‘llagan.

Shu munosabat bilan tanbur, sato va dutor cholg‘ularining ansambl imkoniyatlari haqida ham to‘xtalish zarur. Tarixan ushbu cholg‘ular xalq orasida sevimli sozlar sifatida keng qo‘llanilgan. Bugungi kunda ham tanbur, sato, dutor va doira cholg‘ularidan iborat kvartet ansambli shaklida ko‘plab asarlarni ijro etish va audio yozuvga olish mumkin. Jahon musiqa amaliyotida ansambl va orkestr ijodi keng rivojlangan bo‘lsa-da, har bir millatning o‘ziga xos sevimli cholg‘ularidan tashkil topgan kichik ansambllari alohida badiiy ahamiyatga ega.

Kam sonli cholg‘ulardan tuzilgan ansambllarda ijro qilingan asarlar o‘ziga xos sado va badiiy muhit yaratadi. Bunday ijrolarni eshitish va idrok etish tinglovchi uchun nisbatan yengilroq kechadi. Ayniqsa, tanbur, sato va dutor kabi mayin sadoli cholg‘ularning uyg‘unligi tinglovchida sokin, teran va estetik kayfiyat uyg‘otadi.

Birinchidan, bu cholg‘ularda sozlanish va tovush muvozanatini ta’minlash nisbatan qulaydir.

Ikkinchidan, ularni birgalikda ijro etishda melizm va forshlaglarning taqsimlanishi bilan bog‘liq ayrim ijroviy muammolarni bartaraf etish mumkin.

Uchinchidan, ushbu cholg‘ularda nola, qochirim va kashishlarni uyg‘un tarzda ijro etish imkoniyatlari mavjud. Chunki bu sozlarning melizm, nola va kashishlari bir-biriga yaqin.

To‘rtinchidan, tanbur, sato va dutorning bir-biri bilan uyg‘unlashish imkoniyatlari keng bo‘lib, ularning past dinamik diapazon va mayin tembr muvozanati ansambl ijrosida muhim badiiy natija beradi. Shu bois ushbu cholg‘ular ishtirokida ansambl tuzish, ko‘proq kuy-qo‘shiqlarni ijro etish va ularni xalq e’tiboriga havola etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu cholg‘ular uyg‘unligida yuzaga keladigan sadolanish va ohanglanish o‘zbek musiqa madaniyatining o‘ziga xos jihatlaridan biridir.

Turg‘un Alimatov ijodiy jarayonida avvalo mavjud ashulani to‘liq o‘zlashtirib, so‘ngra uni cholg‘u nuqtayi nazaridan qayta talqin qilgan. Jo‘r bo‘lish jarayonida u ashulaga nafis cholg‘ulashtirilgan jo‘rnavozlik qatlamini qo‘shgan. Ustozning ashula ijrosiga jo‘r bo‘lishida tinglovchi go‘yo alohida cholg‘u asarini eshitayotgandek taassurot oladi. Bu esa ijrochining ashula asaridan mustaqil cholg‘u obrazini yaratish mahoratiga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Asar naqoratlarida, oradagi cholg‘u pauzalarida va hofizga jo‘r bo‘lish jarayonida Turg‘un Alimatov turli badiiy ohanglarni qo‘llagan. Natijada ashula va cholg‘u jo‘rligi o‘zaro uyg‘unlashib, tinglovchiga ikki badiiy qatlamni birgalikda his

qilish imkonini bergan. Bu jihat uning jo‘rnavozlik san’atidagi o‘ziga xosligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, Turg‘un Alimatovning ijodiy merosi o‘zbek milliy musiqa san’ati uchun muhim badiiy hodisa hisoblanadi. Uning tanbur, sato va dutor ijrochiligidagi uslubi, asarlarga yondashuvi, jo‘rnavozlik mahorati va ijroviy tafakkuri yosh sozandalar uchun muhim tajriba manbaidir. Ustozning ijodiy tamoyillarini chuqur o‘rganish va amaliy ijrochilikda davom ettirish milliy musiqa merosini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolxo‘jayev Sh. An’anaviy tanbur ijrochiligida Turg‘un Alimatov ijro uslubi // San’at. – 2020.
2. Zufarov A. An’anaviy tanbur: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
3. Qosimov R. An’anaviy tanbur ijrochiligi: darslik. – Toshkent, 2002.
4. Olimboyeva K., Yo‘ldoshboyeva T., Axmedov M., Mirzayev T. O‘zbekiston xalq sozandalari. II kitob. – Toshkent, 1974.
5. Umarov A. Tanbur navolari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 1996.

References

1. Xolxo‘jayev, Sh. “An’anaviy tanbur ijrochiligida Turg‘un Alimatov ijro uslubi” [Performance Style of Turg‘un Alimatov in Traditional Tanbur Performance]. *San’at*, 2020. (in Uzbek)
2. Zufarov, Abror. *An’anaviy tanbur: o‘quv qo‘llanma* [Traditional Tanbur: Study Guide]. Toshkent, 2022. (in Uzbek)
3. Qosimov, Rifatilla. *An’anaviy tanbur ijrochiligi: darslik* [Traditional Tanbur Performance: Textbook]. Toshkent, 2002. (in Uzbek)
4. Olimboyeva, K., T. Yo‘ldoshboyeva, M. Axmedov, and T. Mirzayev. *O‘zbekiston xalq sozandalari. II kitob* [Folk Musicians of Uzbekistan. Book 2]. Toshkent, 1974. (in Uzbek)
5. Umarov, Abdulla. *Tanbur navolari: o‘quv qo‘llanma* [Tanbur Melodies: Study Guide]. Toshkent, 1996. (in Uzbek)